

O'ZBEK MADANYATIDA AYOL MATONATINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika
instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Jabborova Sayyoraxon Muxammadkobilovna
Usmonova Shohsanam Shavkatovna
Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi.
Ne'matova Zilolaxon Arabboy qizi*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek madanyatida ayol matonatining o'rni va ahamiyati haqida so`z boradi. Ayol kishining naqadar nozik xilqat ekanligini bila turib uning matonati, sabr toqati, bardoshi, mehnatsevarligi kabi xislatlarini ham inkor etish noo`rin bo`lishi ayol istasa har qanday qiyinchilikni yengishiga doir hayotiy misol tirik guvohlaru, ana shu matonat sohibasi haqidagi kichik hikoya ham maqoladan joy olgan.

Kalit so'zlar: Ayol, matonat, iroda, adolatli jamiyat, shijoat, madaniyat, mehnat, tajriba, taraqqiyot.

Kirish. Biz ayol kishining matonati, irodasi haqida ko'plab filmlar ko'ramiz, eshitganmiz yoxud o'qiganmiz, ularni o'zimizdan qandaydir uzoqda, olisroqda tasavvur qilamiz. Ammo bundaylar juda yaqinimizda, balki oramizda ekanini ba'zan sezmay ham qolamiz. Men bu mehnatda pishgan, tajribali ayolni 12 yildan beri bilaman. Maktabga ilk bor ishga kelganimdayoq, uning ancha qattiqko'l, ammo adolatli rahbar ekanini sezganman. Ayol kishi rahbar bo'ldimi, albatta o'sha korxona, aniqrog'i maktab uning uchun birinchi darajali, oila va boshqa narsalar keyingi o'rinda tursa kerak deb tasavvur qilganman. O'ziga xos did bilan kiyingan, nozikta'b bu ayol oila ishlariga ancha beparvo bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. O'sha kuni, bundan 3-4 yillar oldin, uylariga ish yuzasidan kechasi borishga to'g'ri keldi. Qarangki, ba'zilar maza qilib uyquga ketgan bu paytda Manzura opa non yopayotgan ekan. "Ha, endi ayol kishi kunduzi ishlasa, kechasi nonini yopadida" deb o'ylagandim. Ammo nonlarni tandirdan uzib do'konga topshirishlarini eshitib hayratlandim. Bu har kungi holat ekan, mana kichkinagina tadbirkorlikning oddiy bir ko'rinishi. Saharmardondan turib, bir

nechta sigirni sog'ib, ularni saranjomlash oddiy uy bekalariga ham og'irlilik qilishini yaxshi bilaman, ammo bu ayol hammasiga ulgurib o'z vaqtida maktab ostonasida shu jamoa rahbari sifatida ish boshlashiga faqatgina qoyil qolish kerak.



Oilada birin-ketin 4 nafar yaqinidan ajralish har qanday insonni dovdiratib qo'yadi. Manzura opa ham bir qancha vaqt o'zini o'nglolmay qoldi, hammasi tushda kechayotgandek bo'ldi. Ammo inson irodasi har narsadan kuchli ekan. Farzandini oyoqqa turg'izish, hayotga yo'llash yolg'izgina o'z zimmasiga tushganini his qilgach, tezda o'zini qo'lga oldi, hayot qiyinchiliklariga qasdma-qasd yashay boshladи. Oilada uy bekasi, maktabda rahbar, jamiyatda tadbirkor bu ayol kezi kelganda bir erkakka ham og'irlilik qilib qoladigan fermerlikni ham tashlamadi. Nozik yelkalar unuda ko'tara oldi.

Ha, biz mavhum deb tasavvur qilgan iroda, matonat, shijoat kabi tushunchalarni shundoq yonimizdagi insonlarda ko'rish mumkinligiga yana bir bor ishondim. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar

kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.Dunyo mamlakatlari qatorida va xalqaro hamjamiyatda munosib o'ringa ega bo'lgan O'zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o'rni, uning siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o'rni va roli har qachongidanda muhim. Shu bois islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g'oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishlarini ta'minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug'lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo'tabar onalarimizni e'zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro'yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Ta'kidlash joiz, bugungi kunda Yurtboshimiz boshchiligidagi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish sari dadil qadamlar qo'ymoqdamiz. Binobarin, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ayollarning baxti asosiga qurilmoqda, desak adashmagan bo'lamiz. Sir emaski, yangi Uyg'onish davri, avvalo, ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma'naviyatning mustahkamligiga bog'liqdir. Mazkur o'tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning ta'limi va ilm-fan bilan shug'ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Jamiyatda ayollarni ilm-fanga ruhlantirish maqsadida yangi mexanizm – «Olima ayollar jamiyat» tuzilgani hamda uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish uchun Davlat byudjetidan 50 milliard so'm ajratilgani barcha xotin-qizlarning ko'nglida jamiyatning eng faol qatlami – «olima ayol» bo'lishga intilishlarini yanada kuchaytirishi ayni haqiqat.

Hech shubhasiz, ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to'laqonli ta'minlash, ularni ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglikni va teng

huquqlilikni ta'minlashdagi ijtimoiy adolat namunasidir.

Bir so'z bilan aytganda, ayollarning taqdiri, buguni va kelajagi uchun davlat siyosati darajasidagi yuksak e'tiborning ifodasi bo'lgan bunday sharoitlar va imtiyozlar mamlakatimiz tarixida hali bo'lмаган. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo'sh urayotgan shukronalik va yurtdan, Yurtboshidan minnatdorlik hissi amaliy faoliyatimizga ko'chib, har bir sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda. Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi.

MUHOKAMA;

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdar shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat. Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

E'tirof etish kerak, so'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning jamiyatdagi rolini kuchaytirish, oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ishlari yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. O'zbekiston xotin-qizlarni har qanday kamsitish va tahqirlashlardan himoya qiladigan barcha asosiy xalqaro hujjatlarga qo'shildi. Bunda «Onalikni muhofaza qilish to'g'risida»gi Jeneva Konvensiyasi, «Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi hamda «Xotin-qizlar huquqlari

kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi N'yu-York Konventsiyalari, «Birlashgan Millatlar Tashkilotining transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konventsiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi» Bayonnomasi kabi xalqaro hujjatlarni misol qilib keltirish mumkin. Yurtimizda «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida», «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida», «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, qonun hujjatlarining majburiy gender-huquqiy ekspertizasi joriy qilindi.

Ayollarni qo'llab-quvvatlash masalalarida davlat rahbarining bevosita tashabbusi bilan 30 dan ortiq farmon va qarorlar hamda hukumat qarorlari qabul qilinganligini qayd etib o'tish joiz. Birgina joriy yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, «Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari hamda «Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

XULOSA: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayol o'rni ko'klarda bolmasa ham lekin oilam bola chaqam deb yashaydi, kerak bo'lsa o'zini unitib qo'yadi bekorga aytilmagan onalar oyag' ostida jannat deb.

REFERENCES:

1. altynsay@sdv.uz
2. <http://blog.xabar.uz/post/ayol-matonati>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekiston-madaniyatida-ayol-matonating-orni>
4. Jabborova, S., Erkinova, I., & Shokirova, Z. (2024). VIRTUAL O 'YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI. Ilm-fan va ta'lif, (6 (21)).

- 5.Jabborova, S., Mirzadavlatova, U., & Kozimova, G. (2024). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA AXBOROTNING O'RNI VA AHAMIYATI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).
- 6.Jabborova, S., Ismatillayeva, I., Fozilova, R., & Sultonboyev, A. (2024). TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING ISTIQBOLLARI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).
- 7.Jabborova, S., Daminjonova, S., Ismoilova, G., & Mamatqodirova, M. (2024). AXBOROTNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).
- 8.Jabborova, S., Olimjanova, H., & Shodmonova, S. (2024). INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH-DAVR TALABI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).
- 9.Bahodir o'g'li, V. S. (2024). YURTIMIZDA ARABLAR BOSQINI VA ISLOM DININING KIRIB KELISHI. WORLD OF SCIENCE, 7(10), 40-44.
- 10.Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFAOLATI. Ustozlar uchun, 24(1), 204-207.
- 11.Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. Journal of new century innovations, 29(4), 115-120.
- 12.Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(7), 102-110.
13. Ahmedov, A. T. (2024). KASABA UYUSHMA TASHKILOTINING HUQUQIY ASOSLARI-DEMOKRATIYA VA OSHKORALIK PRINSIPLARINI SHAKLLANISHI. Экономика и социум, (4-1 (119)), 54-59.
14. AHMEDOV, A. (2024). KASABA UYUSHMA TASHKILOTLARINING BOSHQA JAMOAT TASHKILOTLARI BILAN O 'ZARO HAMKORLIKHLARI. News of the NUUz, 1(1.9), 60-63.